

## RUHIY RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

*Hasanova Nargiza Yurikovna*  
*Toshkent shahar Sergeli tumani*  
*237- maktabi amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ruhiy rivojlanishi orqada qolgan o‘quvchilar bilan ishlashning samarali psixologik va pedagogik usullari yoritilgan. Bunday o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar tahlil qilingan. Shuningdek, individual yondashuv, psixologik yordam va korreksion ishlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ruhiy rivojlanish, orqada qolish, o‘quvchi psixologiyasi, korreksion ishlar, individual yondashuv, motivatsiya, psixologik yordam, ta’lim jarayoni, inklyuziv ta’lim, pedagogik usullar.

### KIRISH

Ta’lim jarayonida ayrim o‘quvchilarda ruhiy rivojlanishning sustligi yoki orqada qolishi kuzatilishi mumkin. Bu holat ularning bilimlarni o‘zlashtirish, fikrlash, muloqot qilish va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan o‘quvchilar bilan ishlash ta’lim tizimida alohida e’tibor talab qiladigan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Bunday o‘quvchilarda diqqatning sustligi, xotira zaifligi, fikrlash tezligining pastligi va emotsional beqarorlik kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Ular yangi ma’lumotni sekin o‘zlashtiradi va topshiriqlarni bajarishda ko‘proq yordamga muhtoj bo‘ladi. Shu sababli ularga nisbatan individual va ehtiyotkor yondashuv talab etiladi.

Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan o‘quvchilar bilan ishlashning eng muhim usullaridan biri — individual ta’lim yondashuvidir. O‘qituvchi har bir bolaning imkoniyatini hisobga olgan holda topshiriqlarni soddalashtirishi, bosqichma-bosqich tushuntirishi va ko‘proq takrorlashga e’tibor qaratishi lozim.

Motivatsiyani oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘quvchilarda o‘ziga ishonchsizlik ko‘proq uchraydi, shu sababli ularni kichik yutuqlari uchun ham rag‘batlantirish zarur. Maqtov, ijobiy baho va qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Psixologik yordam ko‘rsatish ham samarali usullardan biridir. Maktab psixologi o‘quvchining emotsional holatini o‘rganib, maxsus treninglar va korreksion

mashg'ulotlar o'tkazadi. Diqqatni rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega.

O'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natija beradi. O'yinlar orqali o'quvchilar materialni osonroq tushunadi va qiziqishi ortadi. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Oila bilan hamkorlik qilish ham muhim omildir. Ota-onalar farzandining rivojlanish jarayoniga e'tibor berishi, uyda qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi kerak. Doimiy nazorat va mehrlil munosabat bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi va psixologning hamkorligi samarali natija beradi. Pedagog o'quvchining ta'lim jarayonidagi holatini kuzatib boradi, psixolog esa uning ruhiy rivojlanishiga doir tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu hamkorlik kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Ruhan sust rivojlanganlikning konstitutsional shaklini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'iom tengdoshlarinikiga nisbatan. 1-2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga osxshab tutadi va taiim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitutsion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin. Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi. Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib-unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan boiadi. Shu xildagi kamchiliklaming kelib chiqish sabablarini 3 guruhga bo'lish mumkin: Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qoyish, bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi

shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg‘u va iroda yetishmasligi ustiga o‘quv fanlarini o‘zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo‘shiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto‘g‘ri tarbiya natijasida paydo boigan xislatlar ham qo‘shilib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik xislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalami pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal boilib, ular noto‘g‘ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o‘quvchilar qatoriga o‘tib qoladilar.

Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o‘qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o‘z vaqtida va to‘g‘ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o‘zlashtira oladilar. Ruhan rivojlanish kamchiliklarining ba’zi bir shakllarida bolalarni vaqti-vaqti bilan maxsus psixonevrologik sanatoriylarda davolash foydalidir. Sanatoriyada bola kollektiv ishiga asta-sekinlik bilan jalb etiladi. Unda charchash alomatiari paydo boiganda, u o‘quv mashg‘ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga soddaroq boshqa vazifalar beriladi. Sanatoriyda davolanib kelgandan so‘ng bola o‘qishni o‘z maktabida davom ettiraveradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun taiim umumtaiim bog‘cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Talim tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bunday bolaga bilim berishda o‘qituvchi uning o‘ziga xos individual xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Sogiiqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o‘smirlar gigienasi instituti xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o‘tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko‘rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o‘zlashtirish jihatidan olganda sogiom va yengil darajadagi aqli zaif bolalar o‘rtasida oraliq o‘rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida yengil darajadagi aqli zaif va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlami berib ko‘radilar, shunda normal sogiom bolalar berilgan vazifani to‘g‘ri tushunib, uni kerakli tartibda bajargan boisalar, yengil darajadagi aqli zaif bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani, bajara oladilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkurning o‘ziga xos bo‘lgan va uni aqli zaiflardan oson ajratishga imkon beradigan xususiyatlari dan biri, so‘z-mantiq tafakkur bilan ko‘rgazma-obrazli tafakkur turlarining o‘zaro munosabati va rivojlanish darajalaridir (G‘.B.Shoumarov).

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning so'z-mantiq tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo'lib, ba'zi holatlarda ulami yengil darajadagi aqli zaiflardan farqlay olmaslik mumkin. Ammo, ularning ko'rgazma-harakat va ko'rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Bu esa ularning bilish faolyatlarida katta rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi va ularning bir qismi ma'lum ta'lim-yillaridan keyin, maxsus ta'lim-tarbiya va davolash ishlari natijasida o'z normal tengdoshlariga yetib olishi mumkinligini ko'rsatadi. Tafakkur turlarining bunday munosabati va notekisligi katta differensial diagnostik ahamiyatga egadir. Ma'lum obyektlarni tahlil qilganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar normal tengdoshlariga nisbatan kamroq, lekin aqli zaif bolalarga nisbatan ko'proq belgilarni aniqlaydilar. Lekin, shu bilan birga ularning tahlil jarayoni rejasiz ravishda bajarilganligi sababli obyektning ko'pgina qismlari tushirib qoldiriladi. Ammo, ularga o'qituvchi tomonidan ma'lum yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi. O'qituvchi tomonidan yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi. O'qituvchi tomonidan yordam berilganda aqli zaif bolalarda ham ijobiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin, ammo, bu o'zgarish ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilardagidek katta bo'lmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda tafakkur jarayonlari: tahlil - tavsifdan tashqari umumlashtirish, tasniflash, sistemalashtirish, taqqoslash darajalari jihatdan normal va aqli zaif o'quvchilar tafakkur jarayonlari orasida bo'ladi. Berilayotgan vazifa murakkablashgan sari ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning tafakkur qilish saviyasi aqli zaif bolalarnikiga yaqinlashib boradi. Tafakkurning boshlang'ich sinflardagi taraqqiyot dinamikasini o'rgangan, kuzatgan T.V.Egorova boshlang'ich sinf oxiriga kelib, aksariyat holda ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar tafakkuri normal bolalar tafakkuri saviyasiga yaqinlashganligini ko'rsatadi. Bu yaqinlashish ayniqsa, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar tomonidan umumlashtirish va tasniflash jarayonlarida o'z ifodasini topadi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv, motivatsiya, psixologik yordam va innovatsion ta'lim usullari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi bunday o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni jamiyatga moslashgan barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.
2. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
3. L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova, Maxsus psixologiya-T. 2013 yil
4. Ziyonet.net materiallari